

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

UOʻK(UDC, УДК): 82-2:82-7

INGLIZ VA OʻZBEK KOMEDIYALARIDA LAQABLARNING BADIY-KOMEDIYAVIY FUNKSIYALARI¹**Absamadov Bahodir Urozovich***Turon universiteti**Xorijiy tillar kafedrasi oʻqituvchisi,**Qarshi, Oʻzbekiston**E-mail:* absamadov7777@gmail.com*ORCID ID:* 0009-0008-8719-953X

ANNOTATSIYA

KALIT SOʻZLAR

Ushbu maqolada ingliz va oʻzbek komediyalarida laqablarning badiiy-komediaviy funksiyalari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Asosiy eʼtibor laqablarning obraz yaratishdagi roli, hajviy istehzoni yuzaga keltirishdagi ahamiyati va kulgi vositasi sifatidagi funksiyalariga qaratilgan. Tadqiqot qiyosiy-adabiy, lingvopoetik va semantik-pragmatik tahlillarga asoslanadi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz komediyalaridan U. Shekspir, G. Choser, R. B. Sheridan, O. Uayld, G. B. Shou asarlari, shuningdek, oʻzbek adabiyotidan Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, Gʻafur Gʻulom, Abdulla Qahhor, Sharof Boshbekov komediyalari oʻrganildi. Tadqiqotda laqablar komediyada oddiy nomlash vositasidan tashqari, personaj xarakterini ochish, ijtimoiy tanqid va satira uchun samarali vosita ekanligi ochiqlandi. Xususan, ingliz komediyalarida laqablar ijtimoiy tiplarni kinoya bilan fosh etish va personajning ichki mohiyatini tezkor ifodalashga xizmat qilsa, oʻzbek komediyalarida ular xalqona nutq va milliy hajv ruhida, kulgi orqali axloqiy xulosa chiqarishga yoʻnaltirilgani aniqlangan. Shuningdek, ingliz va oʻzbek komediya anʼanalarida laqablarning umumiy hamda oʻziga xos jihatlarini yoritib, komediya janrida nominatsiya masalasini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Komediya, laqab, badiiy nominatsiya, antroponimika, hajv, istehzo, taxallus, xarakter yaratish.

Received: December 17, 2025**Accepted:** December 19, 2025**Available online:**
February 25, 2026

¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Absamadov B. Ingliz va oʻzbek komediyalarida laqablarning badiiy-komediaviy funksiyalari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 7-24.

ХУДОЖЕСТВЕННО-КОМЕДИЙНЫЕ ФУНКЦИИ ПРОЗВИЩ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ КОМЕДИЯХ

Абсамадов Баходир Урозович

*Преподаватель кафедры иностранных языков,
университет Турон
Карши, Узбекистан*

E-mail: absamadov7777@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-8719-953X

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье проводится сопоставительный анализ художественно-комедийных функций прозвищ в английских и узбекских комедиях. Основное внимание уделяется роли прозвищ в создании художественного образа, их значению в формировании сатирической и иронической направленности произведения, а также функционированию прозвищ как одного из средств комизма. Исследование основывается на методах сравнительно-литературного, лингвопоэтического и семантико-прагматического анализа. В качестве материала исследования использованы комедийные произведения представителей английской литературы – У. Шекспира, Дж. Чосера, Р.Б. Шеридана, О. Уайльда, Дж. Б. Шоу, а также комедии узбекских авторов – Хамзы Хакимзаде, Абдуллы Кадыри, Гафура Гуляма, Абдуллы Каххара и Шарафа Башбекова. В ходе анализа установлено, что прозвища в комедии выступают не только как средство номинации, но и как эффективный инструмент раскрытия характера персонажей, социальной критики и сатирического осмысления действительности. В частности, в английских комедиях прозвища служат для иронического разоблачения социальных типов и оперативного выявления внутренней сущности персонажа, тогда как в узбекских комедиях они функционируют в соответствии со спецификой народной речи и национальной сатирической традицией, направленной на формирование нравственного вывода посредством комического. Проведённое исследование выявляет как общие, так и специфические черты функционирования прозвищ в английской и узбекской комедийных традициях и способствует более глубокому осмыслению проблемы номинации в жанре комедии.

Комедия, прозвище, художественная номинация, антропонимика, сатира, ирония, псевдоним, создание характера.

THE ARTISTIC AND COMIC FUNCTIONS OF NICKNAMES IN ENGLISH AND UZBEK COMEDIES

Absamadov Bahodir Urozovich

Lecturer in the Department of Foreign Languages,

Turon University

Karshi, Uzbekistan

E-mail: absamadov7777@gmail.com

*ORCID ID:*0009-0008-8719-953X

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the artistic and comedic functions of nicknames in English and Uzbek comedies. The main focus is on the role of nicknames in character creation, their significance in generating satirical irony, and their function as a means of eliciting laughter. The research employs comparative-literary, linguopoetic, and semantic-pragmatic approaches. The study material includes works by W. Shakespeare, G. Chaucer, R. B. Sheridan, O. Wilde, and G. B. Shaw from English comedies, as well as comedies by Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, Gafur Gulom, Abdulla Qahhor, and Sharof Boshbekov from Uzbek literature. The research reveals that nicknames in comedies serve not only as simple naming devices but also as effective tools for revealing character personalities, social criticism, and satire. Specifically, in English comedies, nicknames function to ironically expose social types and swiftly convey a character's inner essence, while in Uzbek comedies, they are employed to draw moral conclusions through laughter, reflecting folk speech and national humor. Furthermore, the study illuminates both common and distinctive aspects of nicknames in English and Uzbek comedy traditions, contributing to a deeper understanding of the nomination issue in the comedy genre.

KEY WORDS

Comedy, nickname, artistic nomination, anthroponymy, satire, irony, pseudonym, character construction.

KIRISH

Obraz nomlarini antroponimlarning asosiy turkumi bo'lsa, laqab, taxallus va familiyalar esa qo'shimcha nominativ birliklar sifatida baholanadi (Begmatov, 2013, 49). Badiiy adabiyotda personaj nomi va uning turli nominativ shakllari (ism, familiya, taxallus, laqab) obrazni yaratish va semantik jihatdan boyitishda muhim poetik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, komediya janrida personajlarni laqablar orqali nomlash hodisasi muallifning estetik niyati, ijtimoiy tanqidi va hajviy maqsadlarini mujassamlashtiruvchi samarali badiiy usul sifatida namoyon bo'ladi. Laqab odamning turli xislatlarini ifoda etadigan nom deya ta'riflanadi (Propigin V.G., 1961, 211). Laqablar komediyada oddiy identifikatsiya vositasi bo'lib qolmay, balki xarakter ochish, kulgi uyg'otish, istehzo va satira kuchini oshirish vazifalarini bajaradi (Hough C., 2016, 338).

Ingliz va o'zbek komediya an'analarda laqablarning qo'llanishi milliy madaniyat, til va ijtimoiy ong bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har ikki adabiy makonda bu vosita turlicha semantik yuk va pragmatik ahamiyat kasb etadi. Ingliz komediyasida (xususan, U. Shekspir, B. Jonson, R. Sheridan, O. Uayld, G. B. Shou ijodida) laqablar ko'pincha ijtimoiy tiplarni fosh etish, insoniy illatlarni kinoya orqali ochish va personajning ichki mohiyatini tezkor ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek komediyasida esa (Hamza, Abdulla Qodiriy, G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor, Sharof Boshbekov va boshqalar asarlarida) laqablar xalqona nutq, mentalitet va milliy hajv bilan uzviy bog'langan holda, kulgi orqali axloqiy xulosa chiqarishga yo'naltiriladi.

Komediyada laqablarning funksional imkoniyatlari ayniqsa syujet rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim hollarda laqab personajning doimiy nomiga aylanib, uning ijtimoiy mavqeini yoki psixologik qiyofasini belgilasa, boshqa hollarda esa u niqob, yolg'on ism yoki vaqtinchalik identifikatsiya shaklida namoyon bo'lib, dramatik vaziyat va komik kolliziyalarni yuzaga keltiradi. Masalan, Shekspirning "Much Ado about Nothing" ("Behuda g'alva") asaridagi obrazlardan birining ismi **Borachio** bo'lib, ispancha borracho – "mast",

“ichkilikboz” soʻzidan kelib chiqqan va shu bois qahramonning oʻzini qanday taʼriflaganiga leksik jihatdan toʻliq mos keladi. Shekspir Borachio ismini yaratish orqali nafaqat muhim bir sahnadagi voqeani ifodalagan, balki shu bilan birga ijtimoiy mavqei va etnik mansubligini ham ishora tarzida koʻrsatgan (Smith G., 2009, 912):

“Bora. Stand thee close then under this penthouse, for it drizzles rain, and I will, like a true drunkard, utter all to thee.” – “Yur, unda shu tom ostiga yaqinroq kel – mayda yomgʻir sepalayapti. Men esa haqiqiy ichkilikbozdek, bor sir-asrorimni senga toʻkib solaman.” (Shakespeare, Act 3, Scene 3)

Mazkur tadqiqotda ingliz va oʻzbek komediyalarida laqablarning badiiy-komediaviy funksiyalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy eʼtibor obrazlarning laqablar orqali nomlanishi, laqabning personaj xarakterini yaratishdagi roli, hajviy istehzo vositasi sifatidagi ahamiyati hamda syujetda laqab-niqob orqali yuzaga keladigan kulgi mexanizmlarini ochib berishga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda, qoʻshimcha nominativlarning komediya janrida qoʻllanilishini oʻrganish, ularning semantik, pragmatik vazifalarini ingliz va oʻzbek komediyalari misolida ochib berish tadqiqotimizning asosiy maqsadini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari komediya janrida nominatsiya muammosini chuqurroq anglashga, shuningdek, ingliz va oʻzbek adabiy anʼanalaridagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot diskriptiv, qiyosiy-adabiy va lingvopoetik yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotda ingliz va oʻzbek komediyalaridagi laqablarning qoʻllanishi qiyosiy-tahliliy metod orqali oʻrganilib, ularning badiiy-komediaviy funksiyalari aniqlandi. Semantik-pragmatik tahlil yordamida laqablarning baholovchi va istehzoli maʼnolari, personaj xarakterini yaratishdagi roli hamda kulgi hosil qilish mexanizmlari tahlil qilindi. Kontekstual va funksional-stilistik metodlar asosida laqablarning syujet rivoji, hajviy vaziyatlar va laqab-niqob hodisasi bilan bogʻliq jihatlari ochib berildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz komediyasidan U.

Shekspir, B. Jonson, R. Sheridan, O. Uayld, G. B. Shou, o'zbek komediyasidan esa Hamza, Abdulla Qodiriy, G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor, Sharof Boshbekov asarlari tanlab olinib, laqablar badiiy nominatsiya vositasi sifatida tizimli tahlil qilindi. Mazkur tadqiqotning nazariy asosi antroponimika, badiiy nominatsiya va diskurs nazariyalariga tayanadi. Antroponimika doirasida shaxs nomlari, laqab, taxallus va boshqa nominativ birliklarning til va madaniyatdagi o'рни muhim ahamiyat kasb etadi. E.A. Begmatovning "O'zbek tili antroponimikasi" asarida shaxs ismlari antroponimlarning asosiy turkumi sifatida, laqab va taxalluslar esa qo'shimcha nominativ birliklar sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuv laqablarni mustaqil semantik va pragmatik yuklama kasb etuvchi birlik sifatida o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, V. G. Propiginning rus tilidagi shaxs nomlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida laqablarning baholovchi, ijtimoiy va ekspressiv xususiyatlari alohida ta'kidlanadi, bu esa ularni badiiy matnda xarakter yaratish vositasi sifatida tahlil qilishga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy nominatsiya masalasi adabiy matn va madaniy kontekst bilan uzviy bog'liq holda qaraladi. H. Bergerning "*Situated Utterances: Texts, Bodies, and Cultural Representations*" (Vaziyatli iboralar: matnlar, jismlar va madaniy tasavvurlar) asarida nominativ birliklar muayyan madaniy va ijtimoiy vaziyatda shakllanuvchi diskurs elementi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv komediya janrida laqablarning faqat nomlash vositasi emas, balki kulgi, istehzo va ijtimoiy tanqidni yuzaga keltiruvchi madaniy belgi ekanligini asoslashga imkon beradi. Ingliz adabiyotidagi nomlash an'analari o'rganishda K. Xaf tahriri ostida chop etilgan "*The Oxford Handbook of Names and Naming*" (Oksford ismlar va laqablar qo'llanmasi) asari muhim nazariy manba bo'lib, unda shaxs nomlarining tarixiy, ijtimoiy va pragmatik jihatlari keng yoritilgan. S. Grantning Shekspir asarlaridagi nomlar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari esa komediyada laqab va "speaking names" ("gapiruvchi ismlar")ning ijtimoiy tabaqa, kasb va etnik identifikatsiyani ifodalashdagi rolini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotda shuningdek, leksik-semantik tahlil uchun Oxford English

Dictionary ma'lumotlariga tayangan holda laqablarning lug'aviy ma'nosi, baholovchi komponentlari va tarixiy semantik rivoji aniqlanadi. Ushbu nazariy manbalar majmuasi laqablarni komediya janrida badiiy-komediya funktsiyaga ega nominativ birlik sifatida talqin qilish, ularning xarakter yaratish, hajviy istehzo va syujetdagi kulgi mexanizmlarini yuzaga keltirishdagi rolini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Komediya personajlarni nomlash tizimi janrning badiiy va hajviy imkoniyatlarini belgilovchi muhim poetik omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, laqablar orqali nomlash usuli obrazning ijtimoiy mavqei, axloqiy qiyofasi va xarakterini umumlashtirilgan holda ifodalash imkonini beradi hamda kulgi va istehzoning asosiy manbalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Laqablar komediya janrida oddiy identifikatsiya vositasi bo'lib qolmay, balki ijtimoiy tanqid, tipiklashtirish va badiiy umumlashtirish vazifalarini bajaradi. Ushbu hodisa ingliz adabiyotida ilk hajviy an'analardan shakllangan davrlardan boshlab, zamonaviy o'zbek dramaturgiyasigacha izchil davom etib kelmoqda.

Ingliz adabiyotidagi ilk yirik hajviy namunalaridan biri hisoblangan Jefrey Choserning "The Canterbury Tales" ("Kenterberi ertaklari", XIV asr) asarida personajlar individual ism-shariflari bilan emas, balki ijtimoiy mavqe, kasb yoki lavozimni bildiruvchi nomlar orqali ataladi. Asarda "Knight" (Ritsar), "Miller" (Tegirmonchi), "Wife of Bath" (Bats xotini), "Merchant" (Savdogar), "Clerk" (Kotib), "Summoner" (Sud ijrochisi) kabi nomlar qo'llanilib, ular personajlarning haqiqiy ismlarini emas, balki ularning laqab yoki tipik sifatlovchi nomlari vazifasini bajaradi (Choser, Kenterberi ertaklari, 1914, xi–xii). Bunday nominatsiya usuli Choserga turli ijtimoiy tabaqa vakillarining jamiyatdagi o'rni, axloqiy qiyofasi va xarakterini qisqa va ta'sirchan tarzda ochib berish imkonini beradi. Mazkur laqab-titullar fonida personajlarning ijobiy va salbiy xususiyatlari keskin kontrastda namoyon bo'ladi. Jumladan, "The Friar's Tale" (Ruhoniy hikoyasi) hamda "The Summoner's Tale" (Sud ijrochisi hikoyasi)da diniy mansab egalari ochko'zlik va

ikkiyuzlamachilik orqali kulgiga olinadi. *“The Miller’s Tale”* (Tegirmonchining qissasi)da esa duradgor Jonning shaxsiy ismi ikkinchi planga surilib, u asosan carpenter (duradgor) sifatida tilga olinadi (Absamadov, 2025, 63–69). Ushbu laqab personajning ijtimoiy jihatdan quyi tabaqaga mansubligini va soddaligini bildirsa-da, qissa davomida aynan shu obraz orqali jamiyatdagi axloqiy buzuvchiliklar va ma’naviy inqiroz hajviy yo’sinda fosh etiladi. Demak, Choser ijodida laqablar nafaqat nominativ birlik, balki ijtimoiy tip yaratish va hajviy kulgi mexanizmini ishga soluvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo’ladi.

Sharof Boshbekovning *“Tentak farishtalar”* komediyasidagi barcha obrazlar laqab bilan keltirilgan. Masalan, vaqtida amaldor bo’lgan bemor *“katta”* deb ataladi. Katta har xil tartibga o’rganmagani uchun hech nima unga yoqmaydi. Ko’kragi to’la sho’ro orden-medallari, qop-qora kostyum, bo’yinbog’, qo’lida papka ushlagan yangi bemor Katta aka, yangi ishxonsiga keltirilgan edi. U barchadan hamma ish uchun spravka talab qiladi. *“Ho, siz kimsiz o’zi? – deydi u xormeysterga. – Chapak chalishga spravkangiz bormi?”*

Xormeyster tajribali odam edi: *“Ha, bor!”* deb, u nota varag’ini ko’rsatadi. Shunda *“Katta”*: *“Ha, mayli, unda chalavering!”* deb ruxsat beradi.

Xormeyster ishga kirishib, tayoqchasini harakatlantirishi bilan har kim har xil ashula ayta ketadi: *“Oshiq g’arib”* va *“Paranji”* *“Otmagay tongni”*, *“Voybolam”*, *“Gitler”* allaqanday harbiy marshni, *“Lenin”* o’zining marsiyasini, *“Indamas”* *“Suv kelar laxta-laxtani”*, internatsionalni, *“Amudaryo”*, *“Juna”* *“Ko’zimga boq, ko’zimga”* degan ashulani... Girt jinnixonaning o’zi bo’ldi-qo’ydi (Boshbekov Sh., 1995). Bundan tashqari, asar so’ngida jinnixonaga tinchlantiruvchi dori maqsadida hujum qilgan bezorilar ham *“Qaysar”*, *“To’nka”* va *“Bemaza”* kabi o’z xarakterlariga ko’ra nomlangan obrazlar kirib keladi.

Badiiy nominatsiyada personaj nomining laqabga aylanishi. Ingliz sahna komediyalarida mualliflar ko’pincha personajga mazmunli laqab-ism tanlash orqali kulgi va mazmunni birlashtirgan obraz yaratadilar. Masalan, XVIII asr komediografi Richard Brinsley Sheridan o’zining *“The School for Scandal”*

(“G‘iybat maktabi”) komediyasida personajlar uchun *Lady Sneerwell* (inglizcha “sneer” – mazax qilmoq) yoki *Snake* (ilon kabi ayyor kishi) kabi nomlar tanlagan. Bu nomlarning o‘ziyoq ularning g‘iybatchi va makkor xarakterini ochib beradi (Sheridan, R., 1874). Xuddi shunday, Sheridanning “The Rivals” (“Raqiblar”) komediyasidagi *Mrs. Malaprop* obrazi ham o‘z laqabiga mos ravishda kulgili xato so‘zlash odatiga ega. Oksford ingliz tili lug‘atiga ko‘ra (2000, s.v. malapropos), ning “Malaprop” familiyasi fransuzcha mal à propos (noo‘rin, bejo) iborasidan olingan bo‘lib, muallif ataylab shu laqabni berish orqali bu qahramonning so‘zlarni noo‘rin ishlatib, kulgi uyg‘otishini bildirgan (Sheridan, R., 1906). V. Shekspir badiiy asarda laqab sifatida qo‘yilgan nom personajning xulqini oldindan ta’riflab, hajviy effekt yaratishini o‘z komediyalarida ko‘rsata bilgan. Masalan, “Twelfth Night” (“O‘n ikkinchi kecha”) asaridagi sho‘x va ichkilikboz ritsar Sir Toby Belch – uning familiyasi “belch” (hiqqan qilmoq, sho‘xona ravishda kekirmoq) degan ma’noni bildiradi. Bu tanlov bejiz emas: Sir Tobining semiz, qo‘pol va quvnoq qiyofasi aynan “Belch” laqabida aks etadi. Xuddi shu pyesadagi boshqa bir komik qahramon – Ser Andrey Aguchik ismi (“Aguecheek” – titroq va nimjon yanoq) uning ozg‘in va qo‘tir qiyofasini ifodalaydi (Shakespeare, W., 1916). Komediya mualliflari laqablar orqali personajlarning xarakterini yorqinlashtirib, asar boshlanishidanoq kulgili muhit yaratganlar.

O‘zbek hajviy prozasida laqablar qahramonlarning xulqini bitta so‘z bilan kinoyaviy ifodalab, o‘quvchiga darhol komik signal berishda xizmat qiladi. Mualliflar jamiyatdagi ba’zi kimsalarning fe’l-atvorini hajviyot orqali tanqid qilish uchun aynan shunday “ismi-jismiga monand” laqab tanlagan. Ism va xarakter uyg‘unligi asarga emotsional ta’sirchanlik bag‘ishlagan. Masalan, Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida kulgili laqablar orqali personajlarning xarakterini jonli va esda qolarli tarzda ochib bergan. Masalan, Qodiriyning 1920-yillarda yozilgan hajviy hikoyalar to‘plamidagi bosh qahramonlardan biri Toshpo‘lat tajang (“tajang” – jahldor, asabiy degan ma’noda) o‘zining laqabiga monand fe’l-atvori bilan gavdalanadi. Toshpo‘lat tajang “ishi yurishmagan, chala yigit”, ya’ni ishlari o‘ngidan kelmaydigan va

ma'lum ma'noda savodsizroq yosh yigit obrazidir. Uning nomiga qo'shimcha tarzda berilgan "tajang" laqabi dramaviy jihatdan qahramonning jizzaki va tez jahli chaqqon xarakterini ta'kidlaydi, bu esa asardagi ko'plab kulgili vaziyatlarning manbai bo'lib xizmat qiladi.

A. Qodiriy ijodida yana bir xarakterli obraz bu Kalvak Mahzum nomli qahramon (muallifning "Mushtum" jurnalidagi taxallusi ham hisoblanadi) diqqatga sazovordir. "Kalvak" so'zi o'zbek tilida "kal, tunnuk" ma'nolarini berib, mazkur obrazning nodonligi va cheklangan dunyoqarashini kinoya bilan ko'rsatadi. "Mahzum" esa aslida diniy unvon bo'lib, bu birikma g'ayrioddiy laqab sifatida qoralanayotgan shaxsning mavqeini ham bildiradi. Kalvak Mahzum kundalik yangiliklardan bexabar, xurofot bilan miyasi g'ovlagan imom sifatida tavsiflanadi (Qodiriy, A., 2014). Qodiriy bu obrazga ataylab bunday laqab berib, johil va qarashlari tor mulla timsolini zaharxanda ohangda fosh etadi. Dramatik jihatdan, Kalvak Mahzum – asardagi jaholatni tanqid qilish uchun yaratilgan markaziy hajviy qahramon bo'lib, uning "kal" va "mahzum"dan tashkil topgan nomi ko'rinishi va saviyasini keskin kulgili shaklda namoyon etadi. Semantik jihatdan esa bu laqab tarkibida kuchli ironiya mujassam: "Mahzum"dek hurmatli unvonga "Kalvak" (nodon) so'zi qo'shilib, qahramon obro'sizlantiriladi.

Hajviy istehzoda laqablarning vazifasi. Shuningdek, ingliz komediyalarida laqablar dialoglarda hajv va istehzo vositasi sifatida qo'llanadi. Qahramonlar birbirlariga taxallus yoki kinoyali laqablar qo'yish orqali kulgili ziddiyatni kuchaytiradi. Bu uslubga yorqin misollardan biri V. Shekspirning "Much Ado About Nothing" ("Bahuda g'alva") komediyasida kuzatiladi. Asardagi nozikkina hazilkash qahramon Beatrich o'ziga teng qahramon Benedickni masxaraomuz ohangda "Signior Mountanto" deb ataydi. "Mountanto" (ital. montante) termini italyancha qilichbozlikda yuqoriga zarba berish ma'nosini anglatadi – Beatrich bu so'zni ishlatib, Benedickni kinoyali ravishda "janob mohir qilichboz" deb chaqiradi. Albatta, bu laqab achchiq istehzo bilan aytilgan: Beatrich Benedickning jangovar mahoratini maqtayotgandek qilib, aslida uning o'zini beo'xshov maqtanchoqligini

hamda Benedikning o'zini haddan tashqari jasur, jangovar qilib ko'rsatishini kulgili tarzda fosh qiladi. Matnda "Signior Mountanto" degan laqab "Mr. Fancy Fighter", ya'ni "janob o'ziga mahliyo Qilichboz" yoki "janob Havoyi Jangchi" tarzida talqin qilinishi, aynan Benedikning manmanlik xislatini yerga uradi. Shuningdek, Shekspirning "The taming of the Shrew" "Qiyiq qizning quyilishi" asarida Grumio erkak xizmatkorlaridan biriga nisbatan "*Sugarsop*" laqabini ishlatadi ya'ni bu laqab so'zma-so'z olganda "shakarga botirilgan non", "yumshoq tabiatli, sust odam" ma'nosini beradi.

"Grumio. But what talk I of this? Call forth Nathaniel, Joseph, Nicholas, Philip, Walter, Sugarsop, and the rest." (Shakespeare W., 1898, IV parda, I sahna, 97-bet)

Shekspir komediyalaridan birida past tabaqa vakillari kulgili laqab va so'z o'yini orqali tasvirlanadi. "Much Ado About Nothing" ("Behuda shovqin") dagi no'noq politsiya boshlig'i Dogberry bunga misol bo'la oladi. U o'zini dono ko'rsatishga urinar ekan, so'zlarni adashtirib g'alati gaplar qiladi, natijada adabiyotda "Dogberryism" atamasi aynan shu qahramon nomidan kelib chiqib, bema'ni so'z qo'llashga nisbatan ishlatiladigan atamaga aylangan (Berger H., 2005, 499).

Asardagi yana bir holatda Dogberry savodliroq qorovullarni kimlar ekanligini so'raganda qorovullardan birinchisi unga ikki kishini Oatcake va Seacoal taklif qiladi:

"First Watch. Hugh Oatcake, sir, or George Seacoal; for they can write and read" (Shakespeare W., 1917, III-parda, III-sahna, 52-bet)

"Oatcake" – "yormadan bo'lgan non" shaharlik "quyi qatlam" madaniyatiga ishora qiladi, ikkinchisi "Seacoal" – "Dengiz orqali keltirilgan arzon ko'mir" shaxsni "ashyoga", "tovarga" tenglashtiriladi.

Jorj Bernard Shouning "Pygmalion" asarida ham Eliza Dulitl (Eliza Doolittle) ismli qiz o'zining ismidan ham ko'ra, jamiyatdagi mavqei bilan ya'ni "Cockney flower girl" laqabi ostida chaqiriladi. "kokney" Londonning sharqiy qismiga xos

ishchi tabaqa vakili, qo‘pol talaffuz va past ijtimoiy maqomga ishora beradi. (Absamadov B., 2025, 22-24). Qahramonlarga turli laqablar berish va ularning nutqida laqablarni qo‘llash orqali mualliflar hajviy kulgi va satirani kuchaytiradilar: bunday laqablar tomoshabin va o‘quvchilarga obrazning kulgili tomonini aniqroq namoyon etishda yordam beradi.

O‘zbek komediyachiligida laqablar orqali personajlarga jonlilik baxsh etilgan, xususan, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasida kulminatsion epizodlardan biri laqablar bilan bog‘liq. Bir sahnada yosh bir juvon mahalladagi barcha erkaklarga ularning fe‘l-atvoriga mos laqablar taqib chiqadi va shu orqali hammaning ichagini uzadigan darajada kulgi uyg‘otadi, jumladan “Madamin-talmov”. Bu odam doimiy “talmovsirab” (ya’ni, bo‘shashib, behol) yurishi bilan nom chiqargan, shu sababli unga epilepsiyaga ishora qiluvchi kinoyali laqab berilgan. Bir qo‘shnisini “G‘ani-salang” deydi. Bu bo‘ychan va lo‘q dek yurishi uchun “salang” (salobatli, novcha odamga xalq orasida aytiladigan so‘z) laqabi bilan atalgan. Uchinchi erkakka “Nurmat-tajang” laqabi beradi, bu odam hech kim bilan yaxshi muomalada gaplashmay, g‘udranib jahl bilan gapirishi tufayli “tajang” (badjahl) degan nom olgan (Qahhor, A., 2017). Ushbu uch laqabning har biri komedik vazifani bajaradi: personajlarning asosiy qusurlari bitta so‘zli nom bilan fosh etilib, kulgili portretlar yaratiladi. Haqiqatan ham juvonning topqir laqablari mahalla ahlining ichaklarini uzib kuldiradi, ya’ni asarda aniq komik kulminatsiya hosil qiladi. Dramatik nuqtayi nazardan bu epizod butun mahalla ahli ishtirok etgan jamoaviy kulgi sahnasi bo‘lib, laqablar ijtimoiy muomaladagi erkinlik va ahil qo‘shnichilik ruhini aks ettiradi. Odamlardagi kamchiliklar samimiy hazil orqali oshkor etiladi. har bir laqab o‘z egasining xulq-atvorini qisqa va lo‘nda ifodalovchi metonimik nomga aylangan: masalan, “talmov” so‘zi Madaminning jismoniy holatini (“tutqanoq” talvasasiga o‘xshash holatini) bildirish bilan birga uni kulgi obyektiga aylantiradi, “salang” so‘zi G‘anining gavdasini va yurish turishini kinoya qiladi, “tajang” so‘zi esa Nurmatning fe‘lini to‘liq tavsiflaydi. Juvon hatto otasiga ham “Chinoq” degan laqab qo‘yadi va bu eng katta kulgi uyg‘otadi — sababi, bu

laqab otaning qulog'idagi bir kichik nuqsonni (bir qulog'i kemtik, chinoq kabi) oshkor qiladi, holbuki, ayam (onasi) shu paytgacha erining qulog'i qipiq ekanini payqamagan edi. Shunday qilib, Qahhor mazkur asarda laqablar yordamida bir varaqda qahramonlarning yashirin sifatlarini ochib beradi va ularni hajviy tilda jonlantiradi.

Ba'zida laqablar syujet rivojida niqob vazifasini o'taydi. Personajlar o'zlarini boshqa ism ostida tanishtirib, yolg'on laqab yordamida kulgili vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Ingliz komediyalarida bunday yolg'on laqab (pseudonym)lar ko'pincha murakkab voqealar zanjirini yuzaga keltiradi. Masalan, Shekspirning "The Merry Wives of Windsor" ("Vinzdorlik quvnoq xonimlar") komediyasida hasadgo'y er Master Ford o'z xotinini sinash maqsadida o'zini begona odam sifatida tanishtiradi. U "Master Bruk" degan soxta laqab bilan sir John Falstaff bilan tanishib, xotiniga go'yoki oshiq bo'lganini aytadi va Falstaffni uni vasvasaga solishga undaydi. Falstaff esa bu nayrangdan bexabar, "Master Brook" aslida kim ekanini bilmaydi va xotin bilan uchrashuv rejasini ochiq aytib beradi (Shakespeare, W., 1905). Fordning "Brook" laqabi orqali niqoblanishi asarda dramatik ironiya va kulgini yuzaga keltiradi. Falstaff o'z rejalarini xotining haqiqiy eriga maqtanib aytadi, natijada tomoshabin uchun qiziqarli vaziyat hosil bo'ladi.

Xuddi shunday yolg'on laqab atrofida qurilgan kulgili syujet Oskar Uayldning "The Importance of Being Earnest" ("Jiddiy bo'lishning ahamiyati") komediyasida namoyon bo'ladi. Bu pyesada ikki bosh qahramon (Jack Worthing va Algernon Moncrieff) ijtimoiy majburiyatlardan qochish uchun o'zlariga ikki xil hayot va ikki xil ism o'ylab topishadi – ular shaharda yoki alohida holatlarda o'zlarini "Earnest" deb tanishtiradilar. "Earnest" laqabi ingliz tilida "samimiy, rostgo'y" ma'nosidagi earnest so'ziga hamohang bo'lib, asar mazmunida chiroyli so'z o'yini yaratilgan. Uayld qahramonlari aslida halol bo'lmagan holda "Earnest" (ya'ni "rostgo'y") degan laqabni o'zlariga oladilar, natijada, pyesadagi barcha komedik tushunmovchiliklar shu soxta laqab ustiga quriladi. Jek va Aljernonning ikkiyuzlama qiliqlari fosh bo'lib, ularning "Earnestmasligi" sinovdan o'tadi. Ayni

paytda, asar oxirida kutilmaganda Jackning haqiqiy ismi ham Earnest ekani ma'lum bo'lib, bu so'z o'yiniga yakun yasaydi (Wilde, O., 1895). "The Importance of Being Earnest" komediyasida laqab sifatida olingan Ernest ismi syujetning markaziy unsuri bo'lib, u orqali muallif Viktoriyan davri odob me'yorlarini hajv qiladi va tomoshabinni kuldiradi.

O'zbek adabiyotida laqab qahramonning nomigacha aylangan obrazga yorqin misol bu G'afur G'ulom qalamiga mansub **"Shum bola"** qissasidir. Asarning nomi bosh qahramonning laqabi bo'lib, "Shum bola" atamasi o'zbek tilida "sho'x, tentak va quvnoq bola" ma'nolarini anglatadi. Bu qissa qahramoni yetim qolgan o'g'il bolaning asl ismi Qoravoy bo'lsa-da, uni hamma "Shum bola" deb ataydi (G'ulom., G'., 2012). Laqab uning shaxsiy nomini butkul siqib chiqarib, qahramonning obrazini belgilovchi ramziy ismgacha ko'tariladi. Laqabning semantik funksiyasi bu asarda juda kuchli: "Shum bola" degan ibora qahramon xarakterining eng muhim jihatini – sho'x, quvnoq va biroz tentakligini mehr bilan ifodalaydi. Qissada barcha voqealar Shum bolaning sho'xligi atrofida kechib, uning laqabi ironik ravishda qahramonning yetimlikdagi mardonligini ham yoritib beradi, go'yo muallif bolaga shunday nom berib, uning qismatidagi achchiq haqiqatni yumor orqali yumshatadi. Natijada "Shum bola" laqabi badiiy obrazga xushchaqchqlik ruhini berish barobarida, asarning ideya va ruhiyatini ham ifodalovchi vositaga aylandi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek komediyalarida laqablarning badiiy-komediyaviy funksiyalarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, laqablar komediya janrida oddiy nominativ birlik emas, balki personaj xarakterini shakllantirish, ijtimoiy tiplarni umumlashtirish hamda hajviy istehzo va kulgini yuzaga keltirishda muhim badiiy vosita sifatida faol qo'llaniladi. Laqablar orqali obrazning axloqiy qiyofasi, ijtimoiy mavqei va muallif munosabati qisqa, lo'nda va ta'sirchan shaklda ifodalanadi.

Jefrey Choser ijodida laqablarning kasb va ijtimoiy mavqega asoslangan holda qo'llanishi o'rta asr jamiyatining ijtimoiy tuzilmasini hajviy tarzda yoritishga

xizmat qilgan bo'lsa, U. Shekspir va O. Uayld komediyalarida laqablar syujetda niqob vazifasini bajarib, yolg'on ism asosida qurilgan dramatik ironiya va komik tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi. O'zbek adabiyotida esa laqablar, xususan G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida, obrazni belgilovchi ramziy nom darajasiga ko'tarilib, kulgi bilan bir qatorda insoniy va ijtimoiy mazmunni ifodalovchi vositaga aylanadi. Bu holat ingliz va o'zbek komediyalarida laqablarning funksional jihatdan o'xshash bo'lishi bilan birga, milliy madaniyat va adabiy an'analar ta'sirida o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda laqablar bilan bir qatorda taxallus va kinoyaviy nomlarning komediya janridagi o'rni kengroq qiyosiy kontekstda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, laqablarning ingliz va o'zbek badiiy tarjimalarida qanday semantik va pragmatik o'zgarishlarga uchrashi masalasini tahlil qilish komediya poetikasini chuqurroq anglashga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. – Т.: Фан, 2013. – Б. 49. – URL: https://www.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Ernst%20Begmatov.%20O'zbek%20tili%20antropnimikasi.pdf
2. Проппин В.Г. О некоторых особенностях личных имен в русском языке // Учение записки Иркутского государственного педагогического института. – Иркутск, 1961. – Вып. 4. – С. 211. Его же. Русские имена, отчества и фамилии. – Иркутск, 1961.
3. Hough C. (Ed.). *The Oxford handbook of names and naming*. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – URL: <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199656431.001.0001>
4. Smith G. Ethnic, Class, and Occupational Identities in Shakespeare's Names // Names in Multi-Lingual, Multi-Cultural and Multi-Ethnic Contact: Proceedings of the 23rd International Congress of Onomastic Sciences. – Toronto: York University, 2009. – P. 909-914. – URL:

http://yorkspace.library.yorku.ca/xmlui/bitstream/handle/10315/4033/icos23_909.pdf?sequence=1

5. Chaucer G. The Canterbury Tales: A modern rendering into prose of the Prologue and ten tales. Translator: P. MacKaye. – New York, Duffield & Company, 1914. – xi-xii
6. Absamadov B. U. The Gradual Emergence of Comic Elements in Old and Middle English Literature: From Riddles to Satire. *International Journal Of Literature And Languages*. – 2025. – Vol. 5, № 08. – P. 63–69. – DOI <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume05Issue08-13>
7. Бошбеков Ш. Тентак фаришталар. – Тошкент, 1995. – 61 б.
8. Sheridan R. B. The school for scandal: A comedy in five acts. – London, 1874. – 112 p.
9. Oxford English Dictionary. 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – URL: <https://www.oed.com>
10. Sheridan R. B. The rivals: A comedy. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1906. – 111 p.
11. Shakespeare W. Twelfth night, or, What you will. – Boston: D. C. Heath and Company, 1916. – 193 p.
12. Shakespeare W. Much ado about nothing. – New Haven: Yale University Press, 1917. – 158 p.
13. Қодирий А. Танланган асарлар. – Т.: “Шарк” Нашриёт-Матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2014. – 888 б.
14. Shakespeare W. The taming of the shrew. – New York: American Book Company, 1898. – 250 p.
15. Berger H. Situated Utterances: Texts, Bodies, and Cultural Representations. – New York, Fordham University Press, 2005. – 449 p.
16. Absamadov B. U. Comic Realism And Social Critique: A Study Of Humor As Ideological Weapon In George Bernard Shaw’s Pygmalion // *Next Scientists Conferences*. – 2025. – № 1(01). – P. 22–24. – URL: <https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/660>
17. Qahhor A. O‘tmishdan ertaklar. – Т.: Yangi asr avlodi, 2017. – 400 b.
18. Shakespeare W. The Merry Wives of Windsor. – New York: American Book Company, 1905. – 236 p.

19. Wilde O. The importance of being earnest. – Boston: Walter H. Baker Company, 1895. – 136 p.
20. Ғофур Ғулом. Танланган асарлар. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 362 б.

REFERENCES

1. Absamadov, B. U. (2025). Comic Realism And Social Critique: A Study Of Humor As Ideological Weapon In George Bernard Shaw's Pygmalion. *Next Scientists Conferences*, 1(01), 22–24.
<https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/660>
2. Absamadov, B. U. (2025). The Gradual Emergence of Comic Elements in Old and Middle English Literature: From Riddles to Satire. *International Journal Of Literature And Languages*, 5(08), 63–69. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume05Issue08-13>
3. Begmatov, E. A. (2013). *Uzbek anthroponymy*. Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Tashkent: Fan Publishing House.
https://www.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Ernst%20Begmatov.%20O'zbek%20tili%20antroponimikasi.pdf
4. Berger, H. (2005). *Situated Utterances: Texts, Bodies, and Cultural Representations*. New York, USA: Fordham University Press.
5. Boshbekov S. (1995). *Foolish angels*. Tashkent.
6. Chaucer, G. (1914). *The Canterbury Tales: A modern rendering into prose of the Prologue and ten tales* (P. MacKaye, Trans.). New York, NY: Duffield & Company.
7. G'afur G'ulom. (2012). *Selected works*. Tashkent: G'afur G'ulom Publishing and Printing Creative House.
8. Hough, C. (Ed.). (2016). *The Oxford handbook of names and naming*. Oxford: Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199656431.001.0001>
9. Oxford English Dictionary. (2000) *Oxford English Dictionary* (3rd ed.) Oxford University Press. <https://www.oed.com>
10. Propigin, V. G. (1961). *On some features of personal names in the Russian language*. *Scholarly Notes of the Irkutsk State Pedagogical Institute*, 4, 211.
11. Qahhor, A. (2017). *Tales from the past [O'tmishdan ertaklar]*. Tashkent: Yangi Asr Avlodi.

12. Qodiriy, A. (2014). *Selected works*. Tashkent: Sharq Publishing and Printing Joint-Stock Company.
13. Sheridan, R. B. (1874). *The school for scandal: A comedy in five acts* (A. Daly, Adapt.). Printed for Mr. Daly.
14. Sheridan, R. B. (1906). *The rivals: A comedy* (J. Q. Adams, Ed.). Houghton Mifflin Company.
15. Shakespeare, W. (1898). *The taming of the shrew* (W. J. Rolfe, Ed.). American Book Company.
16. Shakespeare, W. (1905). *The Merry Wives of Windsor* (W. J. Rolfe, Ed.). American Book Company.
17. Shakespeare, W. (1916). *Twelfth Night, or, What you will* (A. D. Innes, Ed.; rev. F. K. Pierce). D. C. Heath and Company.
18. Shakespeare, W. (1917). *Much ado about nothing* (T. Brooke, Ed.). Yale University Press.
19. Smith, G. (2009). Ethnic, Class, and Occupational Identities in Shakespeare's Names. In W. Ahrens, S. Embleton, & A. Lapierre (Eds.), *Names in Multi-Lingual, Multi-Cultural and Multi-Ethnic Contact: Proceedings of the 23rd International Congress of Onomastic Sciences* (pp. 909-914), York University. http://yorkspace.library.yorku.ca/xmlui/bitstream/handle/10315/4033/icos23_909.pdf?sequence=1
20. Wilde, O. (1895). *The importance of being earnest*. Walter H. Baker Company.